O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK 334.75(575.1)

MIRZAKARIMOVA MAFTUNAXON BAXROMJON QIZI

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADBIRKORLIKNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI

70411302 – Biznesni boshqarish (Master of Business Administration- MBA) mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. D.Qosimova

Toshkent – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Biznes boshqaruvi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar _____ **i.f.d., prof. D.S.Qosimova**

Kafedra mudiri _____ **i.f.d., prof. U.V.Gafurov**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani _____ **i.f.d., prof. J.I.Karimqulov**

Men, Mirzakarimova Maftunaxon Baxromjon qizi, ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

_____

МАГИСТРЛИК ДИССЕРТАЦИЯСИ ДАСТЛАБКИ ҲИМОЯСИ
33 - СОНЛИ БАЁННОМАСИ

2025 йил "7" апрель

Kechki ta'lim va magistratura факультети Магистратура босқичи 2-курс
"Biznesni boshqarish (Master of Business administration-MBA)
" мутахассислиги MBA-01 -гуруҳи талабаси
Mirzakarimova Maftunaxon Baxtiyor qizi нинг
" O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni
joriy etish mexanizmlari
"

мавзусидаги магистрлик диссертациясининг дастлабки ҳимояси натижаларига кўра қуйидаги камчиликлар қайд этилди:

1. Ишда адабиётлар рўйхатини
расмийлаштириш зарур
2. Натижа ва таклифлар эмпирик
кўрсаткичлар, далиллар билан мустаҳкамланиши керак.

Магистрлик диссертацияси юзасидан хулоса (КИМКда ҳимояга **тавсия этилади/тавсия этилмайди**)

Комиссия раиси: Ў. Гафурова – кафедра мудири

Комиссия аъзолари: Ғ. Хўжаев –
Абдалимов Ш.
Д. Косимова –

– котиб

Изох: Дастлабки ҳимояга киришда талабанинг магистрлик диссертацияси, плагиатга текширилганлиги, илмий раҳбар хулосаси, ички тақризчиларнинг тақризлари, камида 2 та илмий мақоласи (тезис) нусхалари бўлиши талаб этилади.

ANNOTATSIYA

Tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi va yalpi ichki mahsulotni o‘sishiga imkon beradi. Ijtimoiy tadbirkorlikni shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiyotni yanada barqarorlashishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni shakllantirish va joriy etilishi, uning ilmiy asoslangan mexanizmlar asosida joriy qilinishi dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishimiz bevosita ushbu dolzarb masala bo‘lgan, O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni joriy etish mexanizmlari o‘ranishga qaratilgan. Shu jihatdan tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha tadqiqotlar olib borildi. Jumladan mavzuga oid turli ilmiy ishlar, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid huquqiy me’yoriy hujjatlar o‘rganib chiqildi, adabiyotlar sharhi tayyorlandi. Ilmiy ishning amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimizda tadbirkorlik sektori, aholi turmush darajasi, ijtimoiy sohaga doir ma’lumotlar va statistik raqamlar asosida tahlil qilindi. Undan tashqari xorijiy tadqiqotlar va bu sohadagi xorijiy tajriba bilan ham tanishib chiqildi. O‘rganilgan va tahlil qilingan ma’lumotlar asosida ijtimoiy tadbirkorlikni joriy etish va amal qilish mexanizmlari tadqiq etilgan holda, ijtimoiy tadbirkorlikni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

ABSTRACT

Entrepreneurial activity contributes to the development of the country's economy and the growth of the gross domestic product. The formation and development of social entrepreneurship contributes to the further stabilization of the economy. A pressing issue is the formation and implementation of social entrepreneurship in Uzbekistan, its implementation on the basis of scientifically based mechanisms. This research work is directly aimed at studying the mechanisms of implementation of social entrepreneurship in Uzbekistan, which is a pressing issue. In this regard, detailed studies were conducted within the framework of the topic during the study. In particular, various scientific works, views of domestic and foreign scientists, scientific articles, as well as regulatory documents on the topic were studied, a literature review was prepared. To increase the practical significance of scientific work, an analysis was conducted based on data and statistics on the business sector, the standard of living of the population, and the social sphere in our country. In addition, foreign research and foreign experience in this area were studied. Based on the studied and analyzed data, the mechanisms for the implementation and operation of social entrepreneurship were studied, scientific proposals and practical recommendations for improving social entrepreneurship were developed.

MUNDARIJA

	KIRISH	**3**
I BOB.	**IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING MAZMUNI VA NAZARIY ASOSLARI**	**8**
1.1.	Ijtimoiy tadbirkorlikning mazmuni va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi roli	8
1.2.	Ijtimoiy tadbirkorlikning xususiyatlari va asosiy tamoyillari	16
1.3.	Ijtimoiy tadbirkorlik funksiyasining samaradorligini baholashning uslubiy asoslari	22
	Birinchi bob bo'yicha xulosa	27
II BOB.	**O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING SAMARADORLIGI TAHLILI**	**28**
2.1.	Tadbirkorlik sub'ektlarining aholi bandligini ta'minlashdagi ishtiroki tahlili	28
2.2.	Aholi daromadlari va turmush farovonligini oshirishda ijtimoiy tadbirkorlikning tahlili	34
2.3.	O'rta mulkdorlarni shakllanishida kichik biznes va tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish darajasi	40
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	46
III BOB.	**O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**	**47**
3.1.	Ijtimoiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishda bozor dastaklari va iqtisodiy jihatlar ta'sirini muvofiqlashtirish	47
3.2.	Davlat va xususiy sektor hamkorligi doirasida ijtimoiy tadbirkorlikning amalga oshirish mexanizlarini takomillashtirish	60
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa	68
	XULOSA	70
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	72

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Jahon mamlakatlari tajribasi, ijtimoiy muammolarni ijobiy hal etishda, aholi turmush farovonligini oshirishda tadbirkorlik, ijtimoiy tadbirkorlik ijobiy natijalarga sabab bo‘lishini namoyon etmoqda. Xususan, ishsizlarni ish bilan bandligini ta’minlash, aholi daromadlarini oshirish, mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash, kambag‘allik muammosini hal etish, hudud infratuzilmasini rivojlantirishda tadbirkorlik va ijtimoiy tadbirkorlikni amaliyotga joriy etilishi, jamiyat hayotidagi ijtimoiy muammolarni samarali hal etish imkoniyatini oshiradi.

Rivojlangan davlatlarda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishni va ularni tadqiq etuvchi ko‘plab ilmiy tadqiqot tuzilmalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish va tartibga solish bo‘yicha shakllangan amaliy ko‘nikma, to‘plangan tajribalar, tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan ijtimoiy masalalarni hal etishdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tadbirkorlikni keng targ‘ib etish hamda amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishni rag‘batlantiradi.

O‘zbekistonda dunyo mamlakatlari bilan hamohang holda o‘zgarishlar, rivojlanishlar davri ro‘y bermoqda, aholining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ongi o‘zgardi, tadbirkorlikka nisbatan ijobiy munosabat shakllandi va keng e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotida yuqori ahamiyat kasb etishi aksiomaga aylandi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy tadbirkorlikni takomillashtirish va rivojlantirishda yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy muammolardan hisoblangan “mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish” [1] , “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” https://lex.uz/docs/-3107036